

## O‘YINLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MAS’ULIYATI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

*Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahar*

*25- DMTT tayyorlov guruhi tarbiyachi*

*Sharopova Feruzabonu Zarif qizi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga o‘yin orqali ta’lim berish texnologiyasi yoritilgan. Shuningdek, boladagi ma’naviy tasavvurlarning maktabgacha yosh davrida shakllanish jarayonini davrlari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha yoshdagi bolalar, mas’uliyat, shakl, metod, vosita, pedagogik talqin.

**Abstract.** This article discusses the technology of teaching preschool children through play. It also presents the stages of the process of formation of spiritual ideas in a child in preschool age.

**Keywords:** preschool children, responsibility, form, method, tool, pedagogical interpretation.

**Абстрактный.** В данной статье описана технология обучения дошкольников посредством игр. Также представлены этапы процесса формирования духовного воображения ребенка в дошкольном возрасте.

**Ключевые слова:** дошкольники, ответственность, форма, метод, инструмент, педагогическая интерпретация.

Jamiyatning ma’naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog‘liqdir. Shu boisdan ham ta’limdagi yangilanishni, Respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma-

bosqich ta'lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samarali kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga, katta ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin - maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat subyekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelgan.

O'rta Osiyo madaniyati tarixiga nazar solsak, oilada farzand tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratilgan. Mashhur allomalardan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Ahmad Yugnakiylar o'z asarlarida xalqimizga xos bo'lgan farzand tarbiyasi ustida fikr yuritganlar. Xalq pedagogikasini o'rganish davomida olimlarning farzand ta'lim-tarbiyasi va odob-axloqqa oid asarlarida, bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta'sirchan uslubi - o'yin shaklidan juda keng foydalanilganligini ko'ramiz.

O'tmish pedagog olimlaridan P. F. Lesgaft, K.D. Ushinskiy tomonidan o'yin nazariyasi ishlab chiqilgan. o'yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo'lganligi va uning yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o'yin mazmunining bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini K.D. Ushinskiy asoslab berdi. Rus olimlari san'atning kelib chiqishini tadqiq qilayotganlarida bolalar o'yinlariga e'tibor qiladilar. Ularning fikricha, kishilik tarixida o'yinlar san'at kabi, mehnat paydo bo'lgandan so'ng va uning asosida vujudga kelgan.

P.F. Lesgaft “Bola dastlabki o‘yinida tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga taqlid qiladi, o‘yin ijtimoiy voqelikni aks ettiradi”,— deb izohlagan edi. Buyuk psixolog D.V. Elkonin o‘yinning kelib chiqishiga oid yangi g‘oyani ilgari suradi. Jamiyatning dastlabki taraqqiyotidayoq bolalarning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishlari, bolalarning mehnat qilishlari uchun qulay o‘yinchoq - mehnat qurollari ishlab chiqilgan. O‘yinchoq-qurollar paydo bo‘lishi natijasida rolli o‘yinlar paydo bo‘ladi. D.V. Elkonin kattalar mehnatida ishtirok etish orqali bolada mehnat qilishga intilish hissini uyg‘otish zarurligi g‘oyasini ilgari surgan.

Bolaning o‘yinlari orqali unda ijtimoiy foydali, ya’ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. O‘yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari, qiziqishlari, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o‘zi yolg‘iz o‘ynaydi. Predmetli va konstruktorli o‘yinlar orqali bu yoshdagi bola o‘zining idrok xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradi. Syujetli-rolli o‘yinlarda bola, asosan, o‘zi har kuni ko‘rib kuzatayotgan kattalarning hatti- harakatlarini aks ettiradi. Ma’lum rollarga bo‘lingan jamoaviy o‘yin faoliyati bolalardan qoidalarga qat’iy bo‘ysunishini talab qiladi. Chunki bunday o‘yinlar bolada xushmuomalalik, o‘yin qoidalariga, tartib-intizomga bo‘ysunish kabi ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi bu esa ma’naviy tasavvurlari shakllanishida muhim ahamiyatga egadir.

Boladagi ma’naviy tasavvurlarning maktabgacha yosh davrida shakllanish jarayonini uchta davrga bo‘lish mumkin.

- 3 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan davr-emotsional o‘zini-o‘zi muvofiqlashtirishning mustahkamlanishi bilan bog‘liq.

- 4 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan davr- ma’naviy o‘zini- o‘zi muvofiqlashtirish bilan harakterlanadi.

- 5 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan davr-bolalarda shaxsiy ishchanlik sifatlarining shakllanishi ustun bo‘ladi.

O‘yinlar orqali bolalarni ma’naviy, aqliy, jismoniy, esetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida bolalarda o‘z Vatanini sevish, uning boyliklari qadriga yetish, buyuk ajdodlarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qo‘shiqlardan zavqlanish tuyg‘ulari, shuningdek o‘sib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlilik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi.

O‘yinlarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- o‘yinlarning turlari va ularni tashkil etish yo‘llari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;

- o‘yinlarni tashkil etishda ma’naviy qadriyatlar va urf odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda psixologik, ta’limiy, didaktik, harakatli o‘yinlaridan maqsadli foydalanish;

- Xalq ertaklari, xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;

- Bolalarning o‘ynashlari uchun shart-sharoit (o‘yin uchun jihozlar, atributlar) yaratish;.

- o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, o‘yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib borishi..

O‘yinlarining sog‘lom avlodni tarbiyalashdagi roli katta. O‘yinlar bolalar sog‘ligiga, umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish va saqlashga, vatanparvarlik, o‘rtoqlik va do‘stlik, milliy urf – odatlarimizni qadrlashga o‘rgatadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

34. F.R. Valiyeva Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi didaktik jarayonlarda shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati //Multi disciplinary research studies and education, Kuala Lumpur, Malasiya 2021

35. F.R. Valiyeva The importance of educational content in preparation of competitive personnels// 2nd International Conference BRIDGE TO SCIENCE: RESEARCH WORKS San Francisco, USA February 28, 2018

36. Lazarev V. S., Potashnik M. M. Upravleniye razvitiyem shkolы. – M., 1995. – 441 s.